

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining yig'ilish**

BAYONNOMASI №__

19.12. 2024 yil

Denov tumani

Yig'ilish raisi: R. Salomova

Kotiba : S. Nasriddinova

Qatnashdilar: Kafedra professor-o'qituvchilar: 18 nafar

KUN TARTIBI:

1.Ochiq dars muhokamasi. Mavzu: Ijodiy ish namunasi (Karvin sa'ati asosida kanape tayyorlash)

Eshitildi:

Yig'ilishni Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri R. Salomova ochib berdi, bugungi kafedra yig'ilishda Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining o'qituvchisi A. Ahmedovning Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs 13-bt-23- guruhida – "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" fanidan "Ijodiy ish namunasi (Karvin sa'ati asosida kanape tayyorlash)" mavzusidagi 2 soatlik ochiq darsining yutuqlari, haqida so'z yuritdi. -O'qituvchining darsga puxta tayyorgarligi ko'rinib turibdi, dars o'tish mahorati talabga javob beradi, nutq madaniyati, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi yaxshi, darsning reglamenti to'g'ri taqsimlandi, AKT dan unumli foydalandi , talabalarning barchasi faol ishtirok etishdi.



Ushbu masala yuzasidan Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi Q. Xushboqov so'zga chiqib, dedi: "A. Ahmedov tomonidan o'tilgan dars menga juda yoqdi. O'qituvchining bilim darajasi yetarli ekanligi sezilib turibdi. Darsda o'zini tutishi, talabalar bilan savol-javob tarzida dars o'tish uslubidan foydalanishi hozirgi yangi pedagogik texnologiya usullarini qo'llayotganligidan dalolat berib turibdi. Ayniqsa amaliy ish jarayonida ko'magi meni hayratga soldi, chunki mevalardan karvin tayyorlash murakkab jarayon. Ochiq dars davomida ajoyib ko'rgazmalardan foydalanildi. O'qituvchi darsdan ko'zlangan maqsadga erisha oldi deb o'ylayman va namunali deb baholayman".



Shundan keyin Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi A. Amirqulov so'zga chiqib, quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: Dars yaxshi tashkil qilindi, O'qituvchi yangi mavzuni talabalarga yaxshi yetkazib berdi. Talabalar amaliy mashg'ulotga juda faol qatnashdi, dars jarayonida AKT dan foydalanib, talabalarni darsga qiziqitira oldi. Darsda barcha talabalar faol qatnashdi va dars davomida "Zinama-zina", "Ikki qisimli kundalik" metodidan foydalanib talabalarning yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlab oldi, bu darsni ijobiy deb baholayman.




Yig'ilish so'ngida so'z navbati o'qituvchi A. Ahmedovga berildi. A. Ahmedov ochiq mashg'ulot darsida ishtirok etgan professor-o'qituvchilarga o'z minnatdorchiligini bildirdi va muhokama jarayonida professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni keyingi pedagogik faoliyatida e'tiborga olishini ta'kidladi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish qaror qiladi:

1. Professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani o'qituvchisi A. Ahmedov tomonidan tashkillashtirilgan: "Ijodiy ish namunasi (Karvin sa'ati asosida kanape tayyorlash)" mavzusidagi ochiq darsi na'munali deb baholansin.

Yig'ilish raisi:

Kotibi:



R. Salomova

S.Nasriddinova